

**ALEKSANDR FAYNBERGNING O‘ZBEK VA RUS MADANIY ALOQALARINI
MUSTAHKAMLASHDAGI O‘RNI****Yo‘ldosheva Farangiz Ravshanbek qizi**

O‘zDJTU, Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: o‘zbek va rus xalqlari asrlar davomida o‘zaro yaqin aloqada bo‘lib kelgan. Ushbu ikki millatning madaniy aloqalarini mustahkamlashda ko‘plab ijodkor va ziyolilar muhim rol o‘ynagan. Shunday shaxslardan biri – Aleksandr Faynberg bo‘lib, u o‘z ijodi va faoliyati bilan o‘zbek va rus adabiy-madaniy hamkorligining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu maqolada uning o‘zbek madaniyatiga qo‘shgan hissasi, rus adabiyotidagi o‘rni va ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga qaratilgan ishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek-rus madaniy aloqalari, madaniy muloqot, adabiy hamkorlik, o‘zbek va rus she‘riyatida uyg‘unlik.

Adabiyot xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqot va o‘zaro anglashuv jarayonida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tarix davomida turli xalqlarning adabiy merosi tarjima va adabiy almashinuv orqali kengayib, bir xalqning ma‘naviy-ma‘rifiy qadriyatlari boshqasiga yetkazib berilgan. Bu jarayonda tarjimonlar, adabiyotshunoslar va ijodkorlar muhim rol o‘ynaydi. Adabiyot millatlar o‘rtasidagi chegaralarni bartaraf etib, ularning tarixiy, madaniy va falsafiy umumiyliklarini ta‘kidlaydi. Shu o‘rinda Aleksandr Faynbergning ijodi o‘zbek va rus madaniy aloqalarini mustahkamlashda alohida o‘rin tutadi. Uning adabiy faoliyati o‘zbek va rus xalqlarining madaniy o‘zaro ta‘sirini chuqurlashtirishga xizmat qilgan. Faynberg o‘zbek madaniyatini rus auditoriyasiga tanitish va tushuntirishda katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri bo‘lib, u nafaqat o‘z she‘rlari orqali, balki tarjimon sifatida ham xalqlarning bir-birini anglashiga xizmat qilgan. Faynbergning she‘rlari Sharq falsafasi, o‘zbek xalqining an‘analari va qadriyatlari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, ular o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini rus tilida aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan. Faynberg 1965–1969-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo‘lgan. U „Etyud“ (1967), „Soniya“ (1969), „She‘rlar“ (1977), „Olis ko‘priklar“ (1978), „Ijobat“ (1982), „Qisqa to‘lqin“ (1983), „Yoyma to‘r“ (1984), „Erkin sonetlar“ (1990) va boshqa she‘riy to‘plamlar muallifi hisoblanadi.

Uning she‘riy ijodida o‘tmish bilan hozirgi kun, G‘arb bilan Sharq milliyligi va baynalmilalchiligi o‘zaro tutashib, o‘ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o‘zining insoniy mohiyatini to‘la saqlab qolgan, o‘zgaga mehr-shafqat va madad qo‘lini uzatishga tayyor, yer kurrasida sodir bo‘layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi insondir. She‘riy ijodida rus va Yevropa shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari namoyon bo‘lgan. Sharq mumtoz she‘riyati an‘analari ham uning ijodiy uslubiga begona emas. Shuningdek, Faynbergning "Chig‘ir" nomli she‘riy to‘plami, "Ruboiy tori" nomli dostoni, tarjimalaridan Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni, "Oq qushlar galasi" to‘plami kabilar va uning "Sharqona falsafa" va "Xalq og‘zaki ijodi" she‘rlari o‘zbek va rus adabiyoti o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ijodi xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni targ‘ib qilishda davom etmoqda. Jumladan, "Chig‘ir" to‘plami Faynbergning o‘zbek tilida nashr etilgan she‘riy asarlaridan biridir. Ushbu to‘plamda shoirning turli mavzulardagi she‘rlari jamlangan bo‘lib, o‘zbek kitobxonlariga uning ijodini yaqinroq tanishtirishga xizmat qiladi. To‘plamda insoniy kechinmalar, tabiat tasvirlari va falsafiy mushohadalar kabi mavzular o‘z ifodasini topgan. Uning ushbu to‘plami nafaqat adabiy, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ushbu to‘plam orqali shoir o‘zbek va rus madaniy an‘analarini bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilgan, chunki "Chig‘ir" to‘plami rus tilida ijod qilgan Faynbergning o‘zbek tilida chop etilgan muhim asarlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu to'plam o'zbek kitobxonlariga shoir ijodi bilan bevosita o'z ona tilida tanishish imkonini bergan. Bu esa, o'z navbatida, rus adabiy an'analari va poetik uslublarning o'zbek kitobxonlariga yetib borishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birgalikda, Faynberg she'riyatida rus va o'zbek adabiy an'alarining uyg'unligi yaqqol ko'rinadi. U o'z ijodida rus adabiyotining falsafiy va lirika an'alarini Sharqona badiiylik bilan uyg'unlashtirgan. Bu esa o'zbek va rus she'riyatining o'zaro ta'sirini kuchaytirgan hamda "Chig'ir" to'plami o'zbek shoirlari, adabiyotshunoslari va tarjimonlari uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Ushbu asar o'zbek she'riyati rivojiga o'ziga xos yangilik olib kirgan va o'zbek ijodkorlarining rus adabiyoti bilan yanada yaqinroq tanishishiga zamin yaratgan.

Umuman olganda, "Chig'ir" to'plami o'zbek va rus xalqlarining umumiy qadriyatlarini yuksak badiiylik bilan ifodalagan. Bu esa ikki millat vakillarining bir-birini chuqurroq tushinishiga yordam bergan. Shuningdek, Aleksandr Faynbergning "Ruboiy tori" dostoni ham o'zbek va rus madaniy aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan asarlardan biridir. Ushbu doston o'zbek ruboiy an'anasini, Sharqona ohang va mazmunni rus kitobxonlariga yaqinlashtirishga xizmat qilgan. Asar orqali Faynberg o'zbek madaniyatining nozik jihatlari, xalqona ruh va kulgini rus tilidagi adabiyot maydoniga olib chiqqan. U o'z dostoni orqali o'zbek she'riyatining muhim janri – ruboiylarni rus auditoriyasiga tushunarli va yoqimli shaklda yetkazdi. Bu esa rus kitobxonlarining o'zbek mumtoz adabiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Doston o'zbek choyxona madaniyatining yumor, donishmandlik va falsafiy fikr bilan boyitilgan muhitini tasvirlaydi.

Faynberg bu ruhni rus adabiyotiga olib kirib, ikki madaniyat orasidagi umumiy qadriyatlarni ko'rsatishga erishgan. Bundan tashqari, ushbu doston faqat adabiy hodisa bo'lib qolmay, balki o'zbek va rus xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qilgan. U o'zbek va rus xalqlari o'rtasidagi do'stlikning ramziga aylangan. Shu bilan birgalikda, Aleksandr Faynbergning "Sharqona falsafa" va "Xalq og'zaki ijodi" she'rlari uning ijodida alohida o'rin tutadi. Ushbu she'rlar orqali u Sharq adabiyoti, falsafasi va xalq og'zaki ijodining mohiyatini o'zbek va rus madaniyatlari orasida uyg'unlashtirishga harakat qilgan. "Sharqona falsafa" she'rida Faynberg Sharq donishmandligi, falsafasi va ma'naviy qadriyatlarini yoritgan. U insoniylik, muhabbat, hayot va vujudning mohiyati haqida fikr yuritadi. She'rda tasavvufiy qarashlar, hayotning mazmuni va insonning jamiyatdagi o'rnini bilan bog'liq fikrlar aks ettirilgan. Faynberg Sharq falsafasini o'zbek va rus madaniyati kontekstida ko'rsatib, uni rus o'quvchilariga yaqinroq qilishga intilgan.

She'r o'zbek adabiyoti va rus poetik an'alarining uyg'unlashishiga xizmat qilgan hamda Sharq va G'arb madaniy qadriyatlari o'rtasida bog'liqlikni ochib bergan. "Xalq og'zaki ijodi" she'rida esa Faynberg xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishini aks ettirgan. She'rda xalq ertaklari, maqollar, dostonlar va qo'shiqlar haqida fikr yuritilib, ularning madaniyat va adabiyotdagi ahamiyati yoritiladi. She'rda xalq ijodiyoti nafaqat milliy xotira, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy ko'priki ekani ta'kidlanadi. Ijodkor ushbu she'ri orqali o'zbek xalq og'zaki ijodini rus tilida targ'ib qilish orqali rus kitobxonlariga tanishtirgan, rus va o'zbek folklor an'alarini qiyoslab, ularning o'zaro yaqinligini ko'rsatgan hamda xalq og'zaki ijodi orqali madaniy xotirani saqlash va millatlararo do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Umuman olganda, Faynbergning ushbu she'rlari o'zbek va rus adabiyoti o'rtasidagi madaniy muloqotni chuqurlashtirishga katta hissa qo'shgan bo'lib, uning ijodiy merosi xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashda davom etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Aleksandr Faynbergning ijodi o'zbek va rus madaniy aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Uning tarjimalari, she'rlari va adabiy-tanqidiy izlanishlari ikki xalq o'rtasidagi adabiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilgan. Faynberg o'zbek adabiyotining rus tilida keng targ'ib etilishiga hissa qo'shgan bo'lsa, rus kitobxonlariga o'zbek xalq ijodi va falsafiy qarashlarini chuqurroq tushunish imkoniyatini bergan. Uning ijodi nafaqat adabiy, balki madaniy muloqot maydonini kengaytirgan bo'lib, o'zbek va rus xalqlari o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faynberg, A. (1995). Tanlangan she'rlar va poemalar. Moskva: Sovet yozuvchisi.
2. Faynberg, A. (2005). Chig'ir. Toshkent: Ma'naviyat.
- Jo'rayev, M. (2015). Rus she'riyatida falsafiy mushohadalar. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Haydarov, B. (2018). She'riyatda badiiy obraz va metafora. Toshkent: Yozuvchi.
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>